



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6/3 2023

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

- Raximova N.** Xorijiy tilni o'qitish sharoitida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati
Atamuratov R. Raqamli transformatsiya - ta'lim samaradorligining asosi
Norov N. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlarida adolat kategoriyasi
No'monxonova M. Axborot texnologiyalari va bo'lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalari metodikasini rivojlantirishi va hozirgi holati
Суюнов Б.Т. Тезаурус – лингвистик тараққиёт омили
Shofqorov A.M. Hamid Olimjonning takrordan foydalanish mahoratiga doir
Fayzimatova N. Kinship terms and teknonymy
Nazarova R. Effectiveness of teaching through riddle
Nishonova Sh. The role of gestures in effective communication

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

- Tilegenov A.T.** Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning metod va vositalari
Xalikov F. Ta'lim tizimida testologik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik mazmuni
Rasulova G. Adabiy ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish
Baisov A. Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish muammolari
Mirsultanov I.M., Xasanov A.R. O'qituvchilik kasbida barqarorlikni shakllantirish muammosining mavjud holati
Umarova G. Integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik zarurati
Jo'raev Yu.K. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida elektrotexnika fanini o'qitishda ta'lim usullaridan amaliy foydalanish yo'llari
Yo'ldosheva D. Kreativlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili.
Tojiboyev J. Kreativ yondashuv asosida talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilashning pedagogik talablari
Siddiqov B. O'quvchilarning aksiologik kompetentligini rivojlantirish tushunchasi va tahlili
Mexmonaliyev Sh.N. Husayn Voiz Koshifiy ijodida axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishi
Muminova D. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.
Axmedov B.A. Muammoli ta'limda suqrotona yondashuv metodikasi
Bobomurodova L.E. Talabalarning kasbiy-metodik ijodkorligini rivojlantirish
Abdusattorov A., O'rinova N. O'zbek xalq cholg'ulari orkestiri vositasida bo'lajak musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodlari
Aliyeva M. Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashirish
Ражабов Х. Рақамли таълим муҳитида бўлажак кимё ўқитувчилари ахборот-методик компетентлигини такомиллаштириш муаммоси
Saydullayeva A. Ta'limda gender madaniyatni rivojlantirishda ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik-psixologik ahamiyati
Mamayusupov J. Analitik tafakkurni rivojlantirishda pedagogning intellektual faolligi va uning o'ziga xos xususiyatlari
Toshaliyev D. Milliy musiqiy meros va unga o'quvchilarda aksiologik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari
Shermatova Y.S. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar

- Yuldosheva D.T., Maxammadaminova D.A.** Aqli zaif o'quvchilar nutqining fonetik tomondan buzilishi va ularni bartaraf etish yuzasidan logopedik ishlar
- Oppoxo'jayev X.A.** Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarni o'zini -o'zi rivojlantirish kompetentsiyalarini rivojlantirish
- Raxmonov A.R.** Ta'lim innovatsiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyati
- Karomov B.K.** O'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik mohiyati
- Лухманов Д.Б.** Миллий анъаналардан фойдаланиш технологиялари асосида касбий-педагогик фаолиятини ташкил этиш муаммосининг назарий ва амалий ҳолати
- Xalmuxamedova M.A.** Talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mehnatning roli
- Ismoilova N.S.** Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishning mavjud holati
- Жўраев Ш.М.** Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида рефлексив позицияни ривожлантиришнинг тузилиши ва ўрни ҳамда аҳамияти
- Жўраев Ш.М.** Бўлажак ўқитувчиларда рефлексив позицияни ривожлантириш мезонлари ва кўрсаткичлари ҳамда даражалари
- Bekqulov Q.Sh., Barakayeva Ch .S.** Darsdan tashqari vaqtlarda talabalarining mustaqil ijodiy ish faoliyatini tashkil etish bosqichlari
- Raxmanova M. Q.** Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligni rivojlantirish
- Quyliyeva O.R.** Ilk katta sinf o'quvchilariga texnologiya darslarini o'qitishda kasbga yo'naltirish tamoyillarini shakllantirish masalalari
- Ismailova D. R.** Talabalarining axloqiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari
- Abdirimova I.K.** Klaster modeli asosida o'quvchilar loyihalash faoliyatini shakllantirish
- Ortiqov O.A.** Marketing tadqiqotlaridagi zamonaviy yondashuvlar tahlili
- Исманова М.А.** Талабаларда ижодий-креативлик сифатларини ривожлантириш
- Bekturdiyev Q.B.** Ta'limda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari
- Наркабилова Г.** К вопросу о потребности формирования цифровой грамотности студентов
- Боймирзаева Д.** Совершенствование механизмов организации и управления процессом формирования социальной креативности у будущих менеджеров образования.
- Юлдашева Г.** Развитие профессиональной компетентности у будущих студентов педагогического ВУЗа.
- Умарова Г.** Аспекты, заложенные в содержание профессиональных знаний будущих инженеров на основе интегративного подхода
- Tashpulatov R.Kh., Saidnazarova S.F.** Investigation of the quality of additionally acquired knowledge of the learning process
- Sarsenbaev D.** Pedagogical approaches in developing communicative competence

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

- Melikuzieva M.** Talaba-yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u blig" asarining tarbiyaviy imkoniyatlari
- Siddiqov I.** Virtual muzeylar va ularning bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni

tahlil etish jarayoni” tushuniladi [4]. Iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirgan holda eksport hajmini oshirishda zamonaviy korxonalar faoliyatini ustuvor rivojlanishini ta’minlash hamda bu sohada marketing faoliyatini takomillashtirish o’z yechimini kutayotgan bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Korxonalar faoliyatida birinchi navbatda “marketing tadqiqotlari” tushunchasini, uning nazariy va uslubiy ahamiyatini yanada ochib berish bilan uning korxonalarda tutgan rolini oshirish orqali korxona faoliyatida o’z bozorini to’laroq o’rganishiga muhim zamin yaratadi. Lekin, bugungi kunda mamlakatimizdagi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish talab etiladi. Ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirish, raqobatbardosh yangi ishlab chiqarishni tashkil etish va yangi bozorlarga chiqish, ichki bozorga importning o’rni bosuvchi va eksport hajmini oshirishga xizmat qiluvchi tovarlar ishlab chiqarish talab etiladi. Marketing tadqiqotlari tushunchasiga batafsil to’xtaladigan bo’lsak, tor ma’noda bozorni o’rganuvchi fan sohasi hisoblanadi, keng ma’noda marketing tadqiqotlari tushunchasi tovar va xizmatlarni ayirboshlash yo’li bilan ehtiyoj va talablarni qondirishga yo’naltirilgan inson faoliyatining bir turini tushunishimiz mumkin, bozordagi barcha qatnashchilarning o’zaro manfaatlariga asoslangan harakatlarini, talablarini shakllantirish va qondirish uchun birlashtirishdir.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillardagi O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi” to’g’risidagi PF-4947-sonli Farmoni. – O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y. www.lex.uz.
2. Котлер, Ф. Основы маркетинга. 5-е изд. / Ф. Котлер, А. Гари. - М.: Вильямс, 2016. - 752 с.
3. Аникеева-Науменко Л.О., Пересветова Е.Б. Международный маркетинг: Учебное пособие для бакалавров – М.: МГУПС (МИИТ), 2015. – 275 с.
4. Беляев В.И. Маркетинг: основы теории и практики: учебник / В.И. Беляев. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2010. – 680 с.
5. Беэ, Роджер. Маркетинг от потребителя. Пер.с англ. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2018. – 696 с.

PEZIOME

Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotidagi o’zgarishlar, marketing asoslari, bozorni maqsadli segmentlarga taqsimlash, har bir mijozning ehtiyojlarini chuqur o’rganish va ularni maksimal darajada qondirish yo’llari to’g’risida fikr yuritilgan

PEZIOME

В данной статье рассматриваются изменения в рыночной экономике, основы маркетинга, деление рынка на целевые сегменты, углубленное изучение потребностей каждого покупателя и способы их максимального удовлетворения.

SUMMARY

This article discusses the changes in the market economy, the basics of marketing, the division of the market into target segments, the in-depth study of the needs of each customer and ways to satisfy them to the maximum.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNING TASHKIL ETISH ZARURATI

Qurbonova M. F.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, p.f.f.d (PhD)

Tayanch so’zlar: ixtisoslashtirilgan maktab, xalqaro andoza, raqobatbardosh kadrlar, milliy ta’lim strategiyasi, sifatli ta’lim, o’quv natijalari, tabaqalashgan ta’lim.

Ключевые слова: специализированная школа, международная модель, конкурентоспособные кадры, национальная образовательная стратегия, качественное образование, образовательные результаты, дифференцированное образование.

Key words: specialized school, international model, competitive personnel, national education strategy, quality education, educational results, differentiated education.

Kirish. Bugungi globallashtirish va raqamlashuv davrida mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, xalqaro andozalarga raqobatbardosh milliy ta’lim strategiyasini ishlab chiqish,

sifatli ta'lim olish muhitini yaratish, milliy ishchi kuchi potentsiali va imkoniyatlarini oshirish hamda mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida taxsil olayotgan iqtidorli o'quvchilarni kashf etish, ularning salohiyatini yanada oshiruvchi samarali tizimni yaratish, o'quvchilarning o'z qobiliyati va salohiyatlarini to'liq namoyon qiluvchi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatimizda ilm fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shuvchi, xalqimiz manfaatlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi professional mutaxassislar tayyorlash maqsadida umumiy o'rat ta'lim tizimini tabaqalashtirish zarurati ijtimoiy ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda maktab ta'limi quyidagi omillarga ko'ra ma'lum bir tizimga solinmoqda:

- o'quvchining yoshi;
- o'quvchining qiziqishi;
- o'quvchining qobiliyati;
- bilish darajasi;
- regional imkoniyatlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy o'qitish tizimida o'quvchining yoshiga ko'ra sinflarga ajratilishi xalq ta'limi tajribasida o'tgan asrdan beri amalda qo'llanilib kelinmoqda. Bu usulning afzalligi o'quvchilar o'zlariga mos keluvchi darslik va o'quv-uslubiy materiallardan foydalanilishida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchining tabiiy-ilmiy, aniq fanlar, san'at yoki sportga qiziqishini aniqlash hamda qiziqishlari asosida bilim olishga yo'naltirish ijobiy samar beradi. Chunki o'quvchining shaxsiy hobbisi asosida o'rganish jarayonini tashkil etilishi uning maqsadlarini amalga oshirishga hamda muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning akademik darajalari, ularning o'quv natijalariga, bilim va ko'nikmalariga qarab tabaqalashtirilishi mumkin. O'quvchilarning akademik darajalari bo'yicha tabaqalashtirilishi ixtisoslik fanlarni chuqur o'rganishlarida, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish va shaxsiy rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning akademik darajalari ya'ni o'zlashtirishiga ko'ra yuqori, o'rta, past darajalarga ajratish mumkin. Yoki faol o'zlashtiruvchilar, sust o'zlashtiruvchilar kabi guruhlariga ajratish mumkin. O'quvchilarning akademik darajalari yuqori bo'lganda o'quvchilar o'zlashtirish va ta'lim jarayonida katta muvaffaqiyat ko'rsatadi. Olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda samarali tarzda qo'llaydigan va o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmaydigan o'quvchilardir[2]. Bu tarkibda o'quvchilar o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida o'qituvchilar bilan o'zlashtirilgan mavzularni mustaqil tarzda muhokama qilishadi, muhokama jarayonida shaxsiy tashabbus va yaratuvchilik mahoratini namoyon qila oladi.

Natijalar. O'quvchilarning qobiliyati yoki mahorat darajalari bo'yicha guruhlanishi, ularning o'quv natijalari va ta'limiy yutuqlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning qobiliyati va mahorat darajalari haqida to'liq ma'lumot olish uchun diagnostik sinovlar, testlar va boshqa tahlillar amalga oshirilishi kerak. Bu, o'quvchilarning bilish darajasi, qiziqishi, qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarning qobiliyati va mahorat darajalariga qarab ularga maxsus vazifalar va mashg'ulotlar tayyorlashadi. O'quvchilarning qobiliyati va mahorat darajalarini oshirish jarayonida o'quv natijalarini baholash muhimdir. Bu, o'quvchilarning yaxshi, to'g'ri javob berishini hamda o'zlashtirish va rivojlantirish darajalarini oshirishini, ularga o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishiga yordam beradi.

Mazkur masalalar maktab ta'limida o'quvchilarga mos keluvchi ta'lim shaklini tanlash, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish, o'rganishga bo'lgan motivatsiyalarini oshirish va muvaffaqiyatga erishishlari uchun muhim faktorlar hisoblanadi[3]. O'quvchining o'zini o'zi rivojlantirishi, yangiliklarni o'rganishi, muammolarni yechishi, tahlil qilishi, yangi bilimlarni tushunishi, o'qishga va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish bugungi kun pedagogikasi va ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'quvchilarning iqtidori, bilish darajasi, qobiliyati, iste'dodiga ko'ra ixtisoslashgan, chuqurlashtirilgan tarzda tabaqalashgan tartibda o'qitish sifati va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Bu tizim o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini oshirish, iste'dodlarini va qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchilarni bilish darajasiga mos keluvchi ta'lim yo'nalishlarida o'qish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularga o'zlarining qiziqishlarini va iste'dodlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ixtisoslashgan va chuqurlashtirilgan ta'lim tizimi o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishish va o'zlarining potensialini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Muhokama. Ixtisoslashgan va chuqurlashtirilgan ta'lim tizimi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Bu ularning ilmiy, amaliy va ijtimoiy bilimlar sohasida rivojlanishiga imkon beradi. O'quvchilar tanlagan ixtisosliklar mos keluvchi fanlar va sohalarida keng bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi, bu esa ularni kelgusida malakali mutaxassis bo'lish imkonini oshiradi.

Ixtisoslashgan va chuqurlashtirilgan ta'lim tizimi o'quvchilarning qobiliyatlarini va iste'dodlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning yoshi, iqtidorlari, bilish darajasi, qobiliyati va iste'dodi bo'yicha ixtisoslashgan va chuqurlashtirilgan tarzda o'qitilishi mamlakat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Tabaqalashgan ta'lim tizimi yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatlarini oshirishga, mamlakatning ilm-fan sohalarini rivojlantirishda yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqishga imkon beradi. Mamlakatning sanoat, texnologiya, fan va boshqa sohalarida ishchi kuchini oshiradi.

Xulosa. O'quvchilarning ixtisoslashgan va chuqurlashtirilgan ta'lim tizimida o'qitilishi mamlakat taraqqiyotining quyidagi sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- zamonaviy kasblarni yaratish;
- Sifatli kadrlar tayyorlash;
- Ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish;
- huquqiy bilimlarni oshirish;
- milliy madaniyatni ommalashtirish;
- Sanoat va texnologiyani rivojlantirish;

Iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste'dodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim konsepsiyasini yaratishga bo'lgan ijtimoiy zarurat innovatsion maktablarni yaratishga asos bo'ldi [4].

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF – 6097-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 4199-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Щукина Г.И. Формирование познавательных интересов учащихся - важнейший фактор совершенствования современного обучения. - М.: Просвещение, 1994. - 58 с.
3. Швецова, Р.Ф. Развитие самостоятельности младших школьников в учебной деятельности средствами свободной работы : монография - Оренбург: ГУ «ПЦРО», 2010. - 118 с.
4. Yusupov D. F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil o'qish ko'nikmasini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirish // Molodoy ucheniy. 2016. №9.5. -73-76 s.
5. Kurbonova M.F. RIRLS talablari asosida o'quvchilarning anglash va uni izohlash malakalarini mustaqil ishlar jarayonida rivojlantirish // Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Chirchiq, 2021. – B. 1501-1505.
6. Kurbanova M. Preparation of students for the PIRLS International Assessment Program on the basis of the organization of independent work // Scientific progress. – Tashkent, 2021. Volume: 2. – P. 1165-167. (13.00.00 №3)

PEZIOME

Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirish, xalqaro andozalarga raqobatbardosh milliy ta'lim strategiyasini ishlab chiqish, sifatli ta'lim olish muhitini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar tahlil etilgan

PEZIOME

В данной статье анализируются образовательные реформы, реализуемые с целью совершенствования системы образования нашей страны, разработки конкурентоспособной национальной стратегии образования в соответствии с международными стандартами и создания качественной образовательной среды.

SUMMARY

This article analyzes the educational reforms implemented to improve the education system of our country, develop a competitive national education strategy according to international standards, and create a quality education environment.

Талабаларда ижодий-креативлик сифатларини ривожлантириш

Исманова М.А.

ЧДПУ мактабгача таълим metodikasi kafedasi
o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: креатив, innovatsion faoliyat, репродуктив, стереотип, модернизация, трансформация, концепция, маънавий bilim, koʻnikma, malaka.

Ключевые слова: креативность, стереотип, модернизация. инновационная деятельность, знания, умения, навыки.

Key words: information technology, cluster, innovative activities, knowledge, skills, qualifications.

Mavzuning dolzarbligi. Олий таълим тизимида талабаларда ижодий-креативлик сифатларини ривожлантириш учун реал ҳаёт ва касбий амалиётда асосий компитентликни куллаш қобилиятига эга бўладиган мактабгача таълим йўналиши педагог-тарбиячиларни тайерлаш зарур вазифалардан биридир.

Мактабгача еш-шахсининг дастлабки камол топиш даври бўлиб ҳисобланади. Хар бир бола шахсини хар томонлама ривожланиши ва уларда ижодий қобилиятларни шакллантиришда уни адабиётга, санъатга қизиқиш, халқимизнинг бой маданий меросига нисбатан ҳурматни тарбиялаш вазифаларини амалга оширишда педагог етакчи урини эгаллайди. Шу сабабли талабаларни касбий жихатдан камол топтириш педагогик фаолиятга тайерлашда ижодий-креативлик қуникмаларини шакллантириш жуда муҳим саналади.

Д.Векслер креативлик ҳақида қуйидаги мулоҳазаларни билдиради: креативлик-шахсни бир муаммо ёки масала юзасидан бирданига бир нечта ечимлар топишга ундайди, бир қолипда ва зерикарли фикрлашдан фарқ қилиб, воқеа-ҳодисалар моҳиятини англаган ҳолда узвий боғлиқлигини тушуниш, янги ғоялар шакллантиришдан иборат. Талабаларда ижодий фаолият ва янги ғояларни яратиш қўникмасини шакллантиришда психологик ва ижтимоий омиллар ҳамда мавжуд шарт-шароитлар таъсир қилади. Ижтимоий омил таълим олувчиларни ўқув фаолиятига ундашда жуда муҳимдир, чунки ижтимоий мотивлар уларда фаолиятга ижобий муносабатни юзага келтиради. Психологик омил сифатида мотивация муҳим ўрин эгаллайди. Ўқув жараёнида талабаларнинг ижодийлиги фаоллашади, уларда ҳиссий-иродавий куч, ўзига бўлган ишонч янада мустаҳкамлайди.

М.Ганим креативлик негизида ноанъанавийлик, қизиқувчанлик, тасаввур, ҳазил-мутойиба туйғуси ва эркинлик мавжуд бўлишига эътибор қаратади. Талабаларнинг касбий профессиограммаси таркибига олим келтирган сифатлар киритилиши мақсадаг мувофиқ.

Л.Б. Ермолаева тасаввур ижодий-продуктив жараён бўлиб, креативликни аниқ намоён бўлиши билан белгиланишини асослайди. Ижодий тафаккурни ривожланиши идрок каналларини фаоллашувига олиб келади, психологик инерцияни пасайтириш, турли нарса ва ҳодисаларни турлича қарашлар асосида тасаввур қилиш, ижодий ғояларни саралаш, ижодий ишларни баҳолаш мезонлари билан таништириш муҳимлигини илгари суради. Таълим-тарбия жараёнида талабаларни ижодийликка йўналтириш ва бошқаришда тафаккурни фаоллаштирувчи методлар самара беради. Талабалардан мутахассис сифатида фаолиятни самарали ташкил этиш усул ва воситаларинигина эмас,